JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 6 - yanvar 3-3-47-Q/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida sun`iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “2018-2022 yillarda O`zbekiston Respublikasida yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash konsepsiyasi” to`g`risidagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2018-2019 yillarda amalga oshirish bo`yicha “Yo`l xaritasi”da harakat xafvsizligini takomillashtirish va yo`l-transport xodisalarining oldini olish bo`yicha topshiriqlar belgilab berilgan va 2019-yil 9-apreldagi “Yo`l harakati qoidalariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi 292-sonli qarorining ijrosini ta`minlash bo`yicha Do‘stlik tumani ichki ishlar bo`limining 2021-yil 17 dekabrdagi 28/2690-sonli xatini inobatga olib, yo`l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta`minlash borasida sun`iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Do‘stlik tumani ichki ishlar bo`limining 2021 yil 17 dekabrdagi 28/2690-sonli xati ma`lumot uchun qa`bul qilinsin.

2. Tuman hududidagi davlat, mahalliy va ichki xo`jalik yo`llarida yo`l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari, o`quv muassasalari, aholi yashash punktlari va ichki yo`llarda yo`l sharoitidan kelib chiqqan holda **ilova**ga muvofiq sun`iy yo‘l notekisliklari tashkil etilsin.

3. Bunda Yevroosiyo davlatlarining davlat me`yori **GOSTR 52605-2006** ga asosan mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo`llari va ichki ko`chalarga, o`quv

muassasalari, maktabgacha ta`lim muassasalari oldiga kengligini **40 sm.dan**, balandligini **7 santimetrdan** oshirmasdan, yo`l qatnov qismi kengligida tashkil etishga alohida e`tibor qaratilsin.

4. Tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (Z.Kulbekov) va tuman ichki ishlar bo`limi yo`l harakati xavfsizligi bo`linmasi (Z.Anorboyev) mahalla fuqarolar yig`ini raislari bilan birgalikda sun`iy yo`l notekisliklarini yo`l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo`yicha zarur chora-tadbirlarni ko`rsin.

5. Mazkur qaror “ Do‘stlik hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari L.Suyunov va tuman ichki ishlar bo`limi boshlig`i I.Nurmatov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **Daniyarov B. M.**

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 6 январдаги
3-3-47-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tuman hududidagi davlat, mahalliy va ichki xo`jalik yo`llarida yo`l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o’rnatilishi zarur bo’lgan yo‘l belgilarining
MANZILLI RO’YHATI

T/R	Yo’l belgisi o’rnatiladigan joy manzili	O’rnatilishi zarur bo’lgan yo’l belgi
1	Chinobod MFY Sarkisov ko’chasining Yoshlar bog’iga olib boruvchi "Mehmon" choyxonasi oldidan o’tgan qismiga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi
2	Chinobod MFY Xamza ko’chasining "Do’stlik Dehqon bozori" orqa tomonidan o’tgan qismiga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi
3	G’.G’ulom MFY U.Nosir ko’chasining “Jom’e” masjidi oldidan o’tgan qismiga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi
4	tuman hududidagi 20 ta umumta’lim maktablari oldidan o’tuvchi yo’llarga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi
5	tuman hududidagi 17 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldidan o’tuvchi yo’llarga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi
6	Mevazor MFY Mevazor ko’chasining Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumidan o’tgan yo’l qismiga	**1.31-** “Sun’iy yo’l notekisligi” yo’l belgisi